

**PRIMQUL XO'JAMQULOV,
ODIL YUNUSOV**

78.37.0.
X - 28.

**ZAMONAVY MUSIQA VA
VOKAL ASOSLARI**



78, 37, 0.
N - 28.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATIVALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

-14032/33-

PRIMQUL XO'JAMQULOV
ODIL YUNUSOV

ZAMONAVIY MUSIQA VA VOKAL ASOSLARI
Oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishi talabalar
uchun

O'QUV QO'LLANMASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATIVALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATIVALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
«Yangi chirchiq book»
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 78;37.0

KBK 285.35

X-28

Xo'jamqulov P., Yunusov / Zamonavíy müsiqa va vakal asosları. O'quv

qo'llanna. / O'quv qo'llanna. - Chirchiq: «Yangi chirchiq book», 2023. – 160

bet.

Mazkur o'quv qo'llanna musiqä ta'limi yo'nalishgi talabalari, o'qituvchilari va konsertmesterlariga mo'jallangan bo'lib, u "Musiqä o'qitish metodikasi" namunaviy Dasturiga binean ishlab chiqilgan Ishchi-o'quv dasturiga asosan tuzilgan. O'quv qo'llannada zamonavíy musiqä va vakal asosları, ijrochilik yo'nalishlari hamda vakal asarları tahlil qilib berilgan. Unda o'qitishning kredit-modul tizimi talabları asosida tahlil amalga oshirilgan.

Qo'shiq ijrochilari: Ko'shkarova K.J.

Abduazimova Sh.

Konsertmeyster: Abdullayeva S.K.

Taqrizchilar: A.Lutfillayev, TDPU professori

Sh.Mahkamova CHDPU dosenti

Ushbu o'quv qo'llanna O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 30 dekabrdagi 429-soni buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8977-5-5

© Xo'jamqulov P. va b., 2023
© «Yangi chirchiq book», 2023

MUNDARIJA

Kitob	4
1=modul.	Musiqä va vokal asoslarining nazariv xususiyatlari.....	5
1-mavzu:	Musiqada vokal san'ati va uning ahamiyati.....	5
2-mavzu:	O'zbek musiqä san'ati namoyondaları.....	17
3-mavzu:	Vokal va zamonavíy musiqaning maqsad va vazifalari.....	37
4-mavzu:	XX asr vokal san'ati rivojining xususiyatlari.....	42
2=modul.	Musiqä va vokal san'ati metodikasi.....	47
5-mavzu:	Xonandalik asosları.....	47
6-mavzu:	Vokals an'atida ovozni yo'iga qo'yish.....	55
7-mavzu:	Vokal musiqä pedagogikasining asosları.....	71
3=modul.	Vokal va musiqä ijrochiligi asosları.....	76
8-mavzu:	Vokal va zamonavíy musiqä asarları tahlili.....	76
9-mavzu:	Nafas olish va chiqarish xususiyatlari.....	81
10-mavzu:	Kuylash uslubiyoti.....	88
4=modul.	Vokal asarlarinamumalari.....	97
Madhiya M. Burxonov musiqiasi A.Oripov she'ri.....	101	
Chumon Ichra O'-bek xalq qo'shiq' T.To'la she'ri.....	101	
Davron suraylik H.Rahimov musiqiasi O'zbek xalq kuyi.....	106	
Sevkliyor X.Izomov musiqiasi M.Boboyev she'ri.....	109	
G'ozal Toshkent M.Deviyev musiqiasi T.To'la she'ri.....	114	
Dug'onalar S.Yudakov musiqiasi Sh.Rashidov she'ri.....	120	
Ponazoroga parvonalar I.Xamraev musiqiasi Yo.Mirzo she'ri.....	132	
Oq koptar I.Yasanov musiqiasi M.Boboyev she'ri.....	138	
Yo'ldirim M.Ashrafy musiqiasi T.To'la she'ri.....	143	
Ishqingdayonib H.Rahimov musiqiasi O'Rashid she'ri.....	149	
Otnagay tong T.Jalilov musiqiasi S.Abdullayev she'ri.....	154	
Tavilya etladigan adabiyotlar	155	

XUSUSIYATLARI

I-mavzu: Musiqada vokal san'ati va uning ahamiyati

“Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” 2022-2026 yillarda mammakatimizda ta'lim sifatiga erishish vazifasi qo'yilgan. Shu jihatdan oly pedagogik ta'lim muassasalarida musiqa o'qituvchilarini tayorlashda ham sifatlari hisoblanadi. Buning uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini keng ko'lami tarkib toptirish taqozo etildi. Shu jihatdan zamonaviy musiqa va vakal asoslari bo'yicha bo'lajak musiqa o'qituvchilariga nazariy bilim, ijrochilik metodikasi va amaliy faoliyat asoslari bo'yicha ko'nikmalar berish dolzarbdir.

Mazkur o'quv qo'llanma “Musiqa o'qitish metodikasi” o'quv tanining namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan Ishchi-o'quv dasturiga tayangan holda tuzildi. Unda zamonaviy musiqa va vakal asoslarining nazariy xususiyatlari, metodikasi, ijrochilik asoslari tahlil qilinib, eng muhim va mashhur vakal asarları namunalari taqdim etildi.

O quv qo'llanmani tayorlashda musiqashunos, vakal namoyondalari va musiqa pedagogikasi olimlarining yondashuvlari, qarashlari hamda metodik tavsiyalariga asoslanildi. Ayna payida, zamonaviy musiqa va vakal asoslari yangicha yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Shu sababli o'quv qo'llanmani tayorlashda bugungi kun talabari va ehtiyojlar hisobga olindi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining zamonaviy musiqa va vakal asoslari bo'yicha kasbiy ko'nikmaga ega bo'lishi zaruriyatidan brider. Chunki bunda “zamonaviy” tushunchasi barchaga ma'qul va ommaviy ma'nosida qo'llaniladi. Mazkur masalalar bo'yicha bo'lajak musiqa o'qituvchilarining nazariy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi muhim ahamiyatga egadir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti davrida musiqa va vokal san'atining ommabop o'zlashtirish bo'lajak musiqa o'qituvchilarini uchun muhim ahamiyatga o'malle. Dunda ayniqsa, zamonaviylik an'anasiga e'tibor berish va yoshlar, umuman hozirda kishilar tomonidan tingلانадиган оммави мусиқа ва вокал асарларининг тоғлиқ ято етишига e'tibor berish hamda ular bo'yicha musiqiy-estetik ko'nikmaga ega bo'lish musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi. Shu jihatdan bu o'rinda musiqa san'atida vakalning ahamiyati to'g'risida тушундудаларга ега бўлиш мақсадга мувоғиқ hisoblanadi.

Vokal san'ati xalqlarning musiqiy ijodi orasida eng ommabop va keng tareqagan bo'libbosqqa barcha san'at turlari singari, nafaqat hayotiy tarjibaga, balki o'z nazariyasiga ham egadir. Xususan, o'zbek xalqining musiqa madaniyati jihat uzoq turiyga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq muntoz musiqasi, o'mmaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - havokorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keledi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kuniyedda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmegda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarni ziga, urf-utoborlarni ziga, umutilayozgan, tarixan qadrii an'analarni ziga bo'lgan yagonidan istox etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi.

Milli qadriyatlarni, urf-odatlarini, ma'naviy boyligimizga bo'lgan bo'libolamizdan, ajoddalarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatini avaylab astrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qedam toshlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'igan ajoddalarimiz

bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boy'ligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib keltingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamrox bo'lgan. Zero, bugungi muborak Mustaqillikka erishgan kuminizza, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod ta'biyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy musiqiya va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibalga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzabrigini yo'qotmagagan holda Mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Ashula, musiqi, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqi san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojanlib kelgan qadimiy san'at turtaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davlarda gidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bit qatorda faqat tarixa sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarza qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuranizni rivojantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanmayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'idi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlар, madaniy meros,

00'atta va rasm - rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zbeki anglish singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsoni belgilashtida asosiy mezon vazifasini bajaradi.

"Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - eng avalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ong'ining ijodiy kuchiga bog'iqdir. Moddiy farowonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lnasligi lozim. Ma'naviylik va mafkulylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'rabi xos xususiyati bo'lib keldi".

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarning barcha yo'naltishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'лади. Ayniqsa, bu jahada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'moli baholash, uning ta'sirchanlik kuchini Mustaqillik mafkurasini tomon yo'naltish uning bosh mezoni ekanligini anglesh muhimdir. Madaniy hayotta bugungi kunda shu tamoyiga ko'ra slujishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-kerai una shu tamoyilar yo'ilga yo'naltirilgan desak, xato qilnagan bo'limni. Musiqiy madaniyat o'zinig' serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zing' chueqr idizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy nafis merosi bozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuhonot namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmuman rivojlangan chehga va ashula asarları, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalishi muqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarni hissalarini qo'shib kelayotgan haliq bastakorturining ijodi ham salmoqli o'rinn tutadi.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi, Bu albatta, Turkiston o'ikasini Rossiya tomonidan isillo qilinishi bilan bug'de. Bu borada ikki tomonloma qarash bilan o'rgannoq zatur bo'ladı. Chundan bazi bir hollarda milliy musiqiya madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish

zarur bo'jadi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'iganish, folk-lor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi. Bu borada V. A. Uspenskiy, Ye. Romanovskaya, N. N. Mironov singari musiqashunos va etnograf olmlarning mehnatlarni aytil o'tish zarur bo'jadi. Iljos Akbarov, Mutual Burxonov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodikov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alarli ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durodonlari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizing har tononlama serqira rivojiga salmoqli hissa qo'shdii. Natijada, o'zbek xalq musiqalari, qo'shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jilddan ortiq kitoblar dunyo yo'zini ko'rdi. So'nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobjiy va salbiy ko'rnishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi.

Istiqlol sharofati bilan Yurtimizda "ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot bapro etish" yo'lidan borar ekanniz, jamiyatimizing barcha sohalarida tup o'zgarishlar amalga oshirilmoxda. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tononlama mukammal inson qilib tarbiyatlash hozirgi kunning eng dolzab muammolaridan biri bo'lib turgan bir paytda, hususan, talantlarga pedagogik maxorat sirlarini o'rgatib borish ota zarurligini hayot taqozo etadi. Bo'ljajak musiqa mutahassisilari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona-Vatanga muhabbat, go'zallikkha intilib yashash uni astrarsh va yaratishga bo'lgan ishtiyooq uyg'utuvchi kasb egalari hisoblanadilar. Bilamizki, Vokal so'zining ma'nosi nemis tilida unli tovush ma'nosini beradi. Vokal janri musiqa janrlari ichida eng qadimysi hisoblanadi. Vokal janrini keng ma'noda tushunish kerak. Vokal yonalishining Vatani Italiya hisoblanadi. Qadimda Italiya cherkovlarida qarovsiz qolgan etim bolalar orasidan musiqiy qobiliyatni bor bolalarmi tanlab olinib, cherkov xoni uchun qo'shiqchilar tayyorlangan. Vokal janrining alohida musiqa janri bo'lib shakllanishida kristian diniga e'tiqod qiluvchi cherkovlarning hissasi katta bo'ldi. Erasmizing VII-VIII asrlardan boshlab juda ko'p kompozitorlar cherkov xorlari

uchun Iso va uning izdoshlarini madh euvchi ko'plab oratoryalar, kontatalar, oriyalar yaratishgan. Bizning O'zbekistonimizga Vokal janri 1930 yillardan keyin kelti. Dastlab Moskva Opera studiyasida iqtidori o'zbek yoshlaridan: Hulma Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashev, Nasim Hoshimov, Karim Zokirov kabi zabardast san'atkorlar tahlil olib, etishib chiqqdi. Keyinchalik foykontent Davlat Konservatoriysi ochilishi bilan vokal qo'shiqbilar shu yerda tabii ola boshladilar. Ular orasidan xalqaro vokalizlar konkurslari lauriyatlari boshchisi Jafitov, Po'lat Minjirkeev, M.Hojimiyoziy, Muyassar Razzogova, Sofiya May kabi ko'plab yetuk opera ashulachilari yetishib chiqqdi. O'zbekistonda vokal janrini rivojlanishiда taniqli kompozitorlardan Mutual Burhonov, Tolibjon Sodiqov, Muhibor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Sharif Ramazonov, Hamid Rahimov, Sobir Boboev, Matniyoz Yusupov kabi koplab kompozitorlar o'zlarining barakali remezlalari bilan katta hissa qo'shdilar. Vokal so'zining lug'aviy ma'nosi bishda qoldindan mavjud bo'lgan aytunga tog'ri keladi. Shunga ko'ra vokal istilohi tarixiy ijtimoiy ma'daniy - ma'rifiy jarayonlarning ajralmas bir bolagi sifatida quloni zamondardan beri yashab kelayapti. O'zbek xalqi madaniy hayotiga XIX asming ikkinchi yarmidan kirib kelib, san'at janrini ifodalay boshlagan vokal tuihunhusi Evropada uzod tariixa ega bo'lib, uning genezisi antik davr diniy manzilolari ijro jarayoniga borib bog'lanadi. Antik Yunon madaniyati tarixi shunga guyohlik beradiki, Yunonlarning e'tiqodiy marosimlari toat- ibodatları manzil so'z, musiqilar, muayyan rimir sistemasi o'zida mujassam etgan. Yunonlarga qilgan toat- ibodatlar, duo- ittijolar mana shu tarzda ijro etilsagina qulon bo'jadi, degan aqida bugungi vokal san'atining dastlabki namunalarini yuzaga keltirgan. Qadim Yunonda ayini tarzagi ijro difiramlar deb atalgan. Huddi shunday jarayonga doir ikilarni biz qadim Shumer, Hitoy, Hind, Misr madaniyatiga doir tadqiqotlarni ham kuzatamiz. Melodiya birinchisi asrдан boshlab kengayuning madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Italyada ilk bor masihiylik e'tiqodi, shu asosda masihiylik cherkovlari va diniy marosimlar tizimi paydo bo'ldi. Ulusbu tizimda ham, asosan, so'z ritimi uyg'unligida ijro etilgandagina diniy

marosim to'laqonli amalga oshadi, degan an'ana davom etirildi. Dimiy marosimlardagi ibodal shakllari masihiylikning mashabi va muayyan hududiga qarab goh musiqa jo'rligida, gohida esa musiqa jo'rligisiz (akapella) ijro etilgan. Eng muhimmi, ibodal marosimlari qay tarzda ijro etilishidan qat'iy nazar so'z ritim bilan uyg'unlashib kelganki, bu keyinchalik biz bugun vokal deb nomlayotgan jangra poydevar vazifasini bajargan. Vokal tarixiga nazariy adabiyotlar guvohlik berishicha, Evropa vokali markaz va tarixiy jihatdan eng qadimiyi Italiya hisoblanadi. Bu dalil vokal san'atining asosi diniy marosimlar ekani haqida yuqoridagi fikrlarni asoslashi bilan bir qatorda, zamonaviy vokal san'atining o'chog'i nima uchun Italiya bo'lganligi tog'risidagi savollarga ham javob beradi. Shuning uchun ham, zamonaviy vokal tarixini umumiy tasnif etganimizda ro'yhatning boshida Italiya vokal maktabi keladi. Evropa vokal san'atining shakllanishi va taraqqiyotida qadim Italyan vokal maktabi asoschilar Petrov Tozi, Jiambattista Manchini, Jo'zeffo Sarlino, I. Yudoviko Sakkoni, Jullyo Kachchini (XVI- XVII asr) xizmatlari katta. Keyinchalik fansuz vokal maktabidan Jan Baptist Berar, Genrik Ferdinand Manshteyn, nemis vokal maktabidan Lilli Leman, rus vokal maktabidan M.I. Glinka, A.E. Varlamovlarning salmoqli faoliyatlarini qayd etish lozim. Shuni alohida qayd qilish joyizki, professional vokal tarixida vokal san'ati amaliyotchilar bilan bir qatorda nazariyotchi olmlar ham faoliyat ko'rsatib kelishgan. Lekin bu o'rinda vokal nazariyotchilar bilan amaliyotchi vokalistlar o'rtasiga Hitoy devori qo'yib bo'lmashagini ta'kidlash lozim. Chunki vokal san'ati tarixida vokal nazariyasi va amaliyotini uyg'un holatda olib borgan shahsler ham talaygina. Bunga misol sifatida Manuel Garsia, M.I.Glinka, F.I. Shalyapinlarni keltirish mumkin. Yuqorida qisqaacha ekskurs qilingan Evropa vokali O'zbek san'ati tarixiga Turkistonni Chor Rossiyasi tomonidan ishg'ol etilganidan keyin kirib kelgan. Ammo bu degani o'zbek vokali tom ma'noda Europa vokal san'atining ta'sirida shakllanadi degan emas. Balki, o'zbek vokal san'ati tarixi ham turkiy xalqlar madaniyatining uzoq tarixiga borib taqaladi. Ma'lum ma'noda vokal san'atining din va jamiyat e'tiqodi bilan bog'liqligi o'zbek

vokal tarixi jayayontariga ham tegishli. Hususan, maqom tizimining bevosita tawwur falsafasidan kelib chiqishi mashhur mutasavviflar – Abu Homid Q'izzoliy, Jamoliddin Rumiy, Fariddiddin Attor, Ahmad Yassaviy, Sofi Olloyor, Maqom esa Sofining Oltoh tomon intilish yoldagi qalb va zikr maromini o'zida oki uttridi. Demak, vokal san'ati bir qadar murakkabroq va tizmiliroq tarzda sharq soqlari tarixida ham mavjud bo'lgan. Ayni jayayontar analiy manbalar asosida Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Darvesh ali Changiy, Komil Xorazmiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyo'ziy, Abdulla Avloniy tonomidan nazarly o'rganigan va targ'ib etilgan. Faqat Shoro davriga kelib, Evropa uslubidagi vokal san'atini o'zbek aytim yo'llariga singdirish va ko'p holatda o'zbek xonandalariga Evropa vokal yo'llarini tog'ridan-tog'ri iijo ettrish uriga kildi. Muhibdin Qori Yoqubov, Bobarahim Mirzaev, Karim Zokirov singari xonundalar Shoro san'at siyosatining oqibati o'laroq tom ma'noda Evropa intibайдаги vokal ijrochitari hisoblanishiadi. Haimma Nosirova, Saodat Qobulova, Nilot Yarashev, Engash Yoldoshev, Abdulla Bozorov, Muyassar Razzoqova, Imoil Jalilovlar ijrochilik faoliyatida esa ham Evropa, ham miliy vokal san'ati oyg'unlashganini kuzatamiz. Vokal fani asosiy maqsadi va vazifasi asosiy vohalaridan biri b'olib, ushbu fan vokal ansambl, xor partiturasini o'qish, estrada qonigiga moslashtirish. Estrada san'ati dirijyorlik va xor solfedjiosi fanlari bilan bog'liq. Vokal fanning asosiy madsadi bo'lajak vokal jamaoalariga rahbarning miliy maxoratini oshirish, naftas olish, dikisiya, so'z tanlash, qo'shiqning yuksak intiviyatu ijro qilish malakasini hosl qilishdan iborat. Fanning asosiy vazifasi yosh motobosslarga kelajakda havaskorlar bilan ishash yo'llarini o'rgatish vokal jeechiligi yutuqlarini amalda tadbiq qilish kabi ishlardan iborat. Talabalarning o'rnida, g'oyaviy va badiuy tarbiyasi muoffaqiyat bilan amalga oshirilishiда, ularning zamonomanzing har jihatdan yetuk, garmonik rivojtagan didi badiuy havuskorlikka va qo'shiqchilikka asos bo'ladigan vokal ijrochiligi fanning

rolı ahamiyatidir. Oliy o'quv yurtlarida talabalarining estetik tarbiyasini rivojlantirishda vokal ijrochiligi fanning tutgan o'mi, o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi, vokalistarning repertuariga tanlangan qo'shiqlar, ularning yosh xususiyatlariga mosligi, talabalar tarbiyasiga, ayniqsa, estetik tarbiyasiga ta'siri, pedagoglar jamaosining talabalarida vokal ijrochiligi bilan estetik tarbiyanı taraqqiy ettrishdagi ish tajribalarini o'rganish va ularni umumlashtirish "Vokal ijrochiligi" fanning oldidagi yuksak vazifalaridandır. Oliy o'quv yurtlari yoshlarga izchil bilim berish bilan birga ularning qabiliyatlarni ham o'stirmoqda, talabalarini barkamol rivojlantirish yuksak atloqiy me'yordarda tarbiyalashdek ulug'vor vazifani ado etmoqda. Bilim dargohida vokal asoslarini o'tishdan maqsad talabalarning estetik qobiliyatlarini o'stirish, ularning iste'dodlarini shakllantirishdan iborat. O'quv dasturlariga muvofiq talabalarini o'zbek kompazitorlarning vokal, shuningdek, o'zbek, rus, qardosh va chet el xalqlarining ijodi bilan tanishtirish ko'zda tutiladi. Birinchi va ikkinchi bosqich talabalarida vokal malakalari hosil bo'la boshlaydi, yuqori bosqich (kurs) larda bu malakalar shakllanadi va o'sadi. Vokal darslari jarayonida talabalarga turli xil vokalizlar va kompazitorlarning yoshiharga atab yozgan asarlari o'rgatib boriladi. Talabalarining vokal san'ati sirlarini egallab, o'zlaridagi talent kurtaklarini o'stirishlari va kelgusida yangi vokalist bo'lib etishib, madaniyatimiz rivojigi munosib hissa qo'shishlari ko'p jihatdan rahbarning xizmati va tashabbuslariga bog'liqidir. Talabalring vokal mashg'ulotlarda qatnashishlari ularning tushuncha doiralalarini yanada kengaytiradi, iste'dod kurtaklarining gul ochishi jarayonini tezlashtiradi, ma'naviy kamolot sari etaklaydi. SHuning uchun ham o'quv dargohlaridagi o'tilayotgan vokal ijrochiligi fanning zimmasida turgan vazifalar niroyatda muhim ma'suliyatdir. Bu vazifani ado etishda barcha imkoniyatlar va vositalarni ishga solish, rezervlaridan unumli foydalananish ta'siridan usullar izlab topish va samaradorlikka erishish talab etiladi. Ta'lim olayog'lan talabalarini ona Vatan va xalqimiza mehru muhabbat va sadoqat ruhida tayyorlashda, ularning qardosh xalqlarga nisbatan do'stik va birodartik tuyg'ularini kuchaytirishda vokal

ijrochiligi fani muhim rol o'ynaydi. Vokal ijrochiligi fanning mashg'ulotlari ham beishqa mashg'ulotlar singari vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga hizmat qilishi, bu narsa vokal ijrochiligi ishining asosiy o'zagi hamda mohiyatini tashkil qilishi lozim. Shu sababli vokal ijrochiligi o'qituvchisi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi, undan talabalarining taqdiriga qayg'urish, unga befarq quramalik talab etiladi. Chunki talabalarining estetik tarbiysi, go'zalilikka munosibattari, ma'naviy yuksalishlari, iste'dodlarining yo'naliishi asosan, paddeg'oning tajribasi, jonkuyarligi va mahoratiga bog'liqidir. Vokal ijrochiligi mashg'ulotlari talaba o'rganib olgan har bir qo'shiq uning ma'naviy olamini boyib, Vatanga bo'lgan mehrini oshiradi. Qo'shiqning matni ijrochiga tushunarli via zavqli bo'lgan taqdirdagina talaba uni tezda yoddab, musiqasini ham o'zlashtirib o'ledi, nozil tomonlarini engil ilg'aydi, sehrini sezadi. SHundan so'ng uni sevib kecha qillishga kirishadi va boshqalarni ham zawqlantira oladi. Mashg'ulotga huvovi har bir talaba ona Vatan haqidagi yangi qo'shiqi o'rganishi bilan uning Vatan haqidagi tushunchalari yanada kengayrib, tasavvuri boyiydi. Unga o'rgatildigan asar har jihatdan sayqal topgan, g'oyaviy – badiyti jihatdan etuk va yohiga munosib bo'lishi kerak. Vokal o'qituvchisi talabalarga biror vokaliz yoki qo'shiqi o'rgatishidan oldin uning mualif'i, asar qachon yaratilganligi va kimga, uning mavzuga bag'ishlanganligi xususida so'zlab, uning tarbiyaviy ahamiyatini ham tushuntirishi kerak. Qo'shiq mualiffi bo'lgan bastakor va shoir haqidagi hikoya esa o'quvchilarining qo'shiq haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi. Vokal o'qituvchisi o'z ishidta talabalarda mustoqaning sezishi, ritm tuyg'usi va munqa xotiralarini o'stirishiga alohida e'tibor berishi kerak. Mabodo bu komponentlardan bironasi umitladigan yoki e'tibordan chetda qoladigan bo'lsa, ishiga katta ziyon etadi, chunki bu komponentlarning har biri xonandani shakllantirishda muhim rol o'yaydi. Vokal ijrochiligi mashg'ulotlari maxsus qurashish, chroyli bezatilgan, estetik jihatdan yaxshi, badiy didga ham muvofiq kelte jihuozlangan xonalarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu xonalarda texnika vohobotli, madaniyatimizning taniqli namoyandalarining partretlarini, vokal

san'ati, musiqaga oid adabiyotlar, chiroyli plakatlar, stendlar va boshqa materiallarni qo'yish mumkin. Har jihatdan yaxshi va chiroyli qilib bezatilgan hamda ko'ngini yaxratadigan bunday xonalar a'llo ijodiy vaziyatni vujudga keltiradi, talaba ruhiiga ijobjiy tasir ko'ssatadi, badiy didni oshirishga ko'maklasadi. Vokal ijrochiligi bo'yicha repertuardi eng yaxshilar manzur bo'lganlari puxta tanlangandan so'ng talabalarga o'rgatiladi. SHuning uchun fanning dasturidagi asarlar miqdori ko'p va rang barang bo'lishi, uning ijrolari doimo muvofqaqiyatlari o'tishi va hamma da chuqur taassurot qoldirishi lozim. Talabalarda estetik didni tarbiyalash ko'p jihatdan vokal o'qituvchising o'z ish faoliyatiga qo'llaydigan metodikasiga bog'iqliq. U ish boshlashdan avval talabalardan birinchi qobiliyatini to'la to'kis namoyon bo'lishiga keng yo'l ochadi. Vokal ijrochiligi darslarini musiqi materialarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz musiqi materialini deganda talabalarga o'rgatiladigan aarning matni va unga yozilgan muklqani ko'zda tutamiz. Vokal ijrochiligi darslariga qatnashayotgan talabalarga o'g'ri kelgan qo'shiqni o'rgataberish yaramaydi. Bunda, yuqorida qisman ishga o'lganishlari, talabalarning ovoz imkoniyatlari va musiqi qobiliyatlarini hisobga olgan xoda ish olib borish talab etiladi. Vokal o'qituvchisi yosh ijrochiligi o'rgatiladigan qo'shiqlarni tanlaganda birinchii navbatda uning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy – badiy qimmati va estetik xususiyatini ko'zda tunnogi lozim. Bu tadbir talabalarning estetik didi va qobiliyati hamda ovozi ne'yordi o'sishtiga olib keladi.

Milliy cholg'ularimizning toifalari ko'pchiligi, turfa yakka va jo'rnavozlik qo'shiqni o'ziga xosligi bo'yicha milliy musiqi san'atimizga dunyo uzra teng keldegantini topish qiyin. Sharq musiqi ilmining asoschisi deb butun jahonda un olimjan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy, buyuk allomalarimizidan Abu Ali ibn Huno, Abdurraqib Marog'iy, Abduraxmon Jomiy, Alishe'r Navoiy, Zaynulobiddin Konyiy, Kavkabiy Buxoriy, Darvish Ali Changiy va boshqalar sharqona jahonshumot ahamiyatiga molik noyob nazariv va estetik qarashlarni ishlab chiqqan hujdu muntoz musiqiy asarlarning ham muallifi sifatida keng tanilgandirlar.

Ana shunday xalqchil va ustozona qatlamlar orqali bizgacha yetib kelgan metodiylar madaniyatimiz tufayli tarixan juda qisqa muddatlarda O'zbekistonda jumla yang'chi, ko'pozozli milliy kompozitorlik ijodiyoti o'zil - kesil shakllandi. O'qituvchiga ega bo'ldi, jadal ravnaq topdi. Bunda xalq musiqiamiz, ayniqsa,

maqomchilik an'alarini faqat hayothaxshlikni taxminlabgina qolmay, balki mahsuldar zamin bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, ulug'vor maqom san'ati milliy ma'naviy mulkining eng qimmatli va ardoqli xazinasidir. Uhing asl namunalaridan necha-necha avlodlar bahramand bo'lib kelishmoqda. Hatto keng ko'lalni targ'ibot uchun rasman taqilangan paytlarda ham maqomlarning mavqeい, amaliy-hayotiy mohiyati saqlanib qolaverdi. Xalqimizning yuksak ongi, didi, ruhiy talab va ehtiyojlariga bastakorlik ijodiyoti, ustozona hofizlik va sozandalik ijrochiligi ma'naviy ozuqa berib kelgan. Shu bois bunday san'at ustalari el - yurtimiz orasida hamsha qadrlanganlar va ezozlanganlar.

Buyuk istiqbol tufayli musiqiy madaniyatimiz eski siyosiy - mafkuraviy tazyiqlardan xolos bo'ldi. Shu bilan birga, u ko'xna mumtoz an'alarimizning to'la tiklanishiga, ayniqsa, yosh avlodlarni bilimdon, sawodxon, ma'naviy barkamol darajada tarbiyalashga misli ko'rilmagan imkoniyat yaradi. Xususan, biz ayman mustaqillik davrida ko'xna maqom ijrochiligi va an'anaviy ijodkorligida yuzaga kelgan yangicha ijodiy salohiyatning tiklanishini kuzatishga myassar bo'imoddamiz.

Diniy-falsafiy ashulalar masalasiga kelsak, bular, avvalo bizning tarixiy boyligimizdir. Kimgadir g'ayri tabiy tuyo'sa ham, bu yo'nalishga to'siq bo'imaslik aslida ozodlik, erkinlik, yuksak madaniyatga xos chinakam demokratik tamoyillarning amaldagi yaqqol ifodasi bo'lsa kerak. Chunki mumtoz sharq she'riyatida bitilgan ilohiy, tasavvufona mavzular o'tmish musiqiamizda o'zining ohanrabo, ta'sirchan ifodasini topgan va qadrlangan.

2-mavzu: O'zbek musiqa san'ati namoyondalari

O'zbekistonda qadimgi davrlardan boshlab o'ziga xos musiqa san'ati rivojlantib kelgan. Bu borada xalqa og'zaki musiqa ijodi namunalarini, Abu Nasr Farobiyning "Kitob al-musiqa al-kabir" (Musiqa haqida katta kitob), Abu Ali Ibn Horonning "Risolai musiqiy" (Musiqa risolasi), Darvish Ali Changiynning "Risolai musiqiy" (Musiqa risolasi) va Mu'iniddin Mo'jiziyning "Musiqa" kabi asarlarda biliqdan o'zbek musiqa va vakal san'ati namoyondalari to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan. Misol uchun, Abu Nasr Farobiy o'z asarida Tanbur cholg'usining dijungida eng mashhur va eng noyob cholg'u ekanligini asoslab ko'rsatgan. Shu ma'lumotda bu o'rinda e'tiboringizni keyingi 120 yil davomida o'igan mashhur musiqa va vakal san'ati namoyondalari to'g'risidagi ma'lumotlarga tortamiz.

Zamonaviy tadqiqotchilar O'rta Osiyoda va xususan O'zbekiston namoyondusiga san'atining nazariy asoslari IX asrdan buyon yaratila boshlagan degan ilkeni ilgari surmoqda. Forobiyning musiqashunoslik asarlariida ungacha myujud bo'lgan allomalar - merosida ayrim noaniqliklar, ayniqsa, nazariy namoyondalarda nomukammalliklar bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Milly musiqa madaniyatimizga juda ko'plab ajiodlarimiz o'z hissalarini qo'shibbing qolmay, ularni qo'lyozma sifatida biza asrlardan davomida qoldirib kechiboladilar. Keling ushu atoqli musiqashunoslarimiz bilan tanishsak.

Komil Xorazmiy (1825-1899)

Jahon madaniyatining Xorazmdagi ilk targ'ibotchilaridan biri. Ogahiy uning nomini o'zining «Gulshani davlat» kitobiga kiritgan. Komil Xorazmiy (taxallusi: ab'l feni Pahlavon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o'g'li) (1825 — Xiva — 1899) — o'zbek shoiri, xattor, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobi. Jahon madaniyatining Xorazmdagi ilk targ'ibotchilaridan biri. Komil Xorazmiy Sharq munusli musiqasi, xususan, maqomchilik an'alarini rivojantirishga homiylik qilgan, o'sbek kuylarini yozib olish uchun «Tanbur chizig» deb ataluvchi nota usmoni joriy etgan. Bu o'ziga xos notada «Rost» maqominining bosh qismini usmon, O'g'il Mirzo Muhammadrasul otasi bashtagan ishlasi davom etirib,

Xorazm «Shashmaqom»ining qolgan ashula va cholg'u yo'llarini to'la notaga olgan. «Rost» maqomiga bog'langan «Murabbai Komil» va «Peshravi Feroz» kuylarining notasi bizgacha etib kelgan. Kamil Xorazmiy va uning shogirdlari tomonidan xalqning beba bo mulki-maqolarning notalashirtilishi jaxon musiqi madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan boylik sifatida etirof etildi.

Ota Jalol Nosirov (1845-1928)

O'zbek musiqi madaniyatining atoqli arbobi, Shashmaqom ijrosining bilimdoni, Ota Jalol Nosirov maqomdon ustoz sifatida san'atkortar va shinavandalar orasida o'z davrida mashhur bo'lib hozirgacha, uning muborak nomi e'zozlanadi. Buxoroda birinchi musiqi maktabining ochilishi, Samarcanda musiqi bilim yurtining tashkil topishi, shashmaqomning yozib olinishi va saqlab qolinishi uning nomi bilan bog'iqidir. Usta Shodi, Domla Halim, Levicha hofiz, Boboqul Fayzullaev, Hoji Abdulaziz, kabi maqom xonandalar Ota Jalol Nosirovdan ta'lim olishgan.

Ota Jalol Nosirov 1845 yili Buxoro shahrinining Eshon pir mahallasida tavallud topgan. Uning oilasi musiqaga moyil bo'lib, akasi Mulla Xayrullo mahoratlari maqom ijrochisi, uning o'g'iti Karomat esa, usta kamonchilaridan edi. Ana shu muhit uni musiqi bilan shug'ullanishiga sharoit yaratib beradi. U sakkiz yoshidan musiqi bilan shug'ullanadi va o'sha davming Tillaboy, Mirzo Hidoyat, Abdurahmonbek, Mir bobo singari mashhur xonanda va sozandalardan saboq oladi. Natijada 20 yoshidayoq shashmaqomni to'liq o'zlashtirib oldi. Uning davrug'ini eshitgan Amir Muzaaffarxon saroyga taklif etib saroy hofizi etib tayinlaydi. Amir Olimxon davrida esa «Miroxo'r» unvoni beriladi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1854-1936)

Hoji Abdulaziz Abdurasulov mashhur hofiz va bastakor sifatida shuhrat qilingan bo'lib, Samarcand, shahrida ko'k masjid mahallasida to'quvchi oilasida tashkil topgan. Uning musiqaga bo'lgan havasi yoshiligidan boshlanib, tanburuchi hofizi o'shon qolga shogird bo'lib tushadi va maqom yo'l-la-rini ijrochisi Boruh hofizini oshulotdi o'rganadi va birga kuylay boshlaydi. Keyin-chalik shashmaqomni mukammal o'rganish maqsadida Buxoroga borib, mashhur imronchon ustoz Ota Jalol Nosirovdan saboq oladi.

Abdulaziz ikki marta Makkaga haj safariga boradi va safar davomida turli kuniy va qo'shiqlari bilan tanishadi. Hoji Abdulaziz tanburni juda yaxshi kuniyda shuhulatni ko'proq duetlar jo'rligida ijo etardi. Uning dasurlaridan biri shuhulat o'tin olgan bo'lib, hofizlikdan tashqari bastakorlik bilan ham

Vilqon iftolda baholanadi. Va keyingi notalashirish jarayonlariga yo'l ochib beradi.

Ota Jalol Nosirov faqat xonanda va sozanda, balki bastakor sifatida ham ijod qiladigan maabularda ko'rsatildi. Ustoz Shashmaqomning mushkilot qismilarini tashqiga notgan ayrim sho'balarini kengaytirigan va qo'shimcha qismilar bastalagan. Ulugh'ibnusqoni ijrosiga savt usuli bilan bir necha qismli sho'ba bastalagan. Usibu hujjatiga qo'shlashda ijrosi «Shavti jaloliy» deb nomlanadi.

1925 yilda Ota Jalol Nosirov Samarcandga taklif etiladi. Bu yerda yoshlarga maqom ilovani va yo'llarini o'rgatadi, kontserrlarda ishtirok etadi. Xo'ji Akhbarov, Youns Rajabiy, Mulla To'ychi Toshmukhammadov, Shoraxin Shumurov bilan ijodiy muloqotda bo'ldi. Va ular ustozdan shashma-qom yilidagi o'rganudilar va maslahatlar olib turadilar. Ota Jalol Nosirov ijrochilik shuhulotdan bahramund bo'lgan o'nlab shogirdlar keyinchalik maqom ijrochiligi uning qolmagan choyiga katta hissa qo'shdilar.

Ota Jalol Nosirov musiqi madaniyatimiz tarixidan shash-maqom bilimdoni va hujjat ilovchisini, mashhur hofiz, va sozanda ko'plab maqom ijrochilarining ustozini ijodida o'shdan o'chmas nom qoldirgan ulug' san'atkordir.

1920 yilda Buxoroda «Sharq musiqi maktabi» ochilib, bir qancha hofiz va sozandalar jalb qilinadi va Ota Jalol Nosirov o'zi bosh bo'lib shashmaqomni o'rgata boshlaydi. 1923 yili V.A. Uspenskiy Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anievlardan shashmaqomning barcha turkumlarini yozib oladi. Shashmaqomning o'sha davrda notaga olinishi va 1924 yilda nashr qilinishi katta

shug'ullanardi. U yaratgan «Gulzorim» «Bozurgoniy», «Bebokcha» «Qurbon o'lani» ashulalari el orasida mashhur ijro sanaladi. 1909 yilda uning ijrosida Riga «Gramafon» firmasi «Iroq», «Nastulloy», «Ushshoqlar» ni yozib olgan.

1928 yilda Samarqand musiqa va xareografiya institutiga ishga olinadi va u yerda bo'lg'usi mashhur san'atkorlar M.Ashrafiy, T. Sodiqov, M.Burxonov, D.Zokirov va boshqalar uning ijodidan bahramand bo'ladiar. Ustoz sanhatkor maqom ijolarini boyitib, jumladan «Ushshoqni» «Samarqand ushshoq», «Qashqarchai ushshoq» yo'llarini va yana bir necha ijolarini yaratadi. Ustoz judu ko'p shogirdlar yetishtiradi.

Mashhur san'atkor Yunus Rajabiy shunday eslaydi: «Poystaxt Camarqand shahridagi paytarda, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov, yana bir qancha san'atkorlar Hoji akaning uyilarida yashab qo'shiq o'rganardik. Men Hoji aka aytgan qo'shiqlardan ta'sirlanib ertalabgacha ustay olmasdim. Va birorta kuyni diliunga joylash uchun sekin xigoyi qilib takrorlardim. Bordi-yu, biror joyni xato qilsam bormi, Hoji aka yotgan joyida menga qayritib, «Hoy' Yunusvoy», undoq emas mana bundoq bo'lad». deb o'zlarini aytib berar-dilar».

Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijrosida qator qo'shiqlar gramplastinkalarga, radio tasmalariga yozib olingan. Ustoz hofiz sakson yoshda ham 1933 yil fevral oyida bo'lgan O'zbekiston san'atkorlarini birinchi slyotida qo'shiq aytish baxtiga mayassar bo'lgan. Shu kuni hoji Abdulaziz Abdurasulov va domla Halim Ibodovga «O'zbekiston xalq hofizi» faxriy unvoni berildi. Mustaqillik yillarda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi. Uning nomida Samarqand shahrida yesh xonandalar-ning republika ko'rlik tanlovi o'tkazib turiladi.

Mulla To'ychi Toshmuhammedov (1866-1945)

O'zbek qo'shiqchilik san'atida o'zidan o'chmas iz qoldirgan mashhur hofiz Mulla To'ychi Toshmuhammedov Toshkent shahrining «Gulbozor» mahallasida bo'zchi oilasida tavallud topgan. Dastlab Abdulla Qori maktabida tahsil olgan va islomiy ilmlar bilan bir qatorda Hofiz, Navoiy, Mashrab, Bedil, Fuzuliy kabi

monotone shortarning ijodi bilan yaqindan tanishiib, ularning g'azallari bilan ashulotte ijro etgan.

To'ychi hofiz yoshligidan amakisi Qo'chqor otadan ashula aytish sirlarini o'rganish, So'ngra ustozni Ubaydullo Andalibdan qo'shiq aytish sirlarini o'rganish. Asta sekin Toshkent hofizlarini nazariga tusha boshlaysidi. Shobarot tanbuchi, Shojalil hofiz, Muhammad Umar, Abdurrahman hofizlar bilan hinga ijod qilgan. Ular bilan hammasaflikda «Qo'shiq bazmi» kechalarini o'ttiki oyan Zamondosh shoirlar Kamiy, Miskin, Xislatar bilan hamkorlikda ijod qilin. Utaq shahroktidagi yig'infarda qatnashgan va Buxoro, Samarkand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilan shaharlariha ham borib ashula yo'llarini o'rgangan, o'ziga xos shuhubilik usubini yaratdi. Shoir Xislat Mulla To'ychi hofizga atab «Armag'ony Xislat» devonini tuzgan. Ushbu devondagi barcha g'azallar hofiz himmida ijro etilgan.

Dastlabki repertuaridan «Ey dastai gul, mathabov», «Fig'on», «Shitob aylab» kabi ashulalar o'rinn olgan. Shojalil hofiz, Shobarot tanbuchi jo'rligida «Shahnoz» nomiga ashulalar turkumi To'ychi hofizga shuhrat keltingan. Keyinchalik uning davrug'i Turkiston o'kasining hamma shaharlariha taralgan.

To'ychi hofiz o'zii ijro etgan ashulalarni birinchilar qatori gramplastinkaga yozdingan. «Gramafon» jamiyatining «Pishluiy Amur» firmasi undan 25 ta shuhub jomladan, «Ilg'or», «Xisrav», «Suvora», «Bobo Ravshan», «Yangi kurd», «Avi kudu» va boshqani yozib olgan. To'ychi Hofiz 1908—10 yillarda Farg'ona viloyatida bo'lgan Adolatxon, Mozidxon kabi ayol xonandalar ijrosidagi qo'shiqlari ham birinchi marta gramplastinkaga yozdingan. Uning tashabbusi kim Anđelon, Farg'ona, Xo'jand va boshqa shaharlarda grammofon va plastinka di tomonagi taobkili etilib, ularda o'zbek, rus va boshqa tillarda kuy, qo'shiq va chubakni yozilgan plastinkalar sotilgan. To'ychi Hofiz aytgan o'zbek numtoz aytishlari — «Buyot», «Fig'on», «Ushshoq», «Segoh», «Giryaya», «Ilg'or», «Avorba», «Chorgoh», «Ko'cha bog'i», «Taronai Dugoh» («Dugohi Xusayniy» inkundinligi turousi) va boshqa o'zbek musiqa madaniyatida muhim o'rinn tutadi.

To'ychi Hofiz ashulalari talqin etilishi, jumlalarining maromiga yetkazib aytilishi, ochimirlarga boyligi, o'zbek musiqa an'anasiagi muntoz ijro uslubi, ovozini, kuchiiliigi bn o'ziga xosdir. Ayniqsa, noyob zebolik bilan Navoiy g'azali («Qur'ko'zum»)ga ijro etgan «Ushshoq» hofizlik san'ati yuksak namurasiga aylangan. To'ychi Hofiz Moskvada o'tkazilgan qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi va O'zbek san'ati dekadasi qatnashchisi Sh. Shoumarov, Yunus va Rixsi Rajabiylar, K. Zokirov, B. Mirzayev va boshqalar To'ychi Hofiz ijrochilik an'analarining davomchilaridir. Toshkent gramplastinkalar zdi va Qashqadaryo viloyati musiqali drama va komedya teatriga To'ychi Hofiz nomi berigan. 1927 yili O'zbekiston xalq hofizi unvoni, vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

Domla Halim Ibodov (1878-1940)

An'anaviy qo'shiqchilik san'atimizning yorqin namoyondalaridan bii Domla Halim Ibodov Buxoro shahrida to'quvchi oitasida dunyoga keldi. O'n yoshidan taniqqli xonanda va sozanda Usta Sharof rabbarligida doira chertib, xalq qo'shiqlarini ijro eta boshladi. Ustoz unga sekin-asta «Shashmaqom» namunalardan tanishira boshladi va mashhur san'atkolar Ota Jalol va Oli G'iyoslar bilan yaqindan tanishishiga yordam beridi.

O'n sakkiz yoshidayoq Buxoroda yetuk xonanda bo'lib elga tanildi. U maqom namunalarini jozibali ovozi bilan ijro etar, shinavandalar qalbida zavq shavq uyg'otardi. O'zi ustoz bo'lib yoshlarga ashula, doira usullaridan duri berardi. 1923 yilda Moskvada birinchи qishloq xo'jalik ko'rgazmasida Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Ahmadjon Umrzoqov, Shorahim Shoumarov, Gulom Zafariy, Abduqodir Ismoilov, To'xtasin Jalilov bilan birgalikda qatnashib zo'r muvaffaqiyatlarga erishdi.

1928 yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya instituti ochilish munosabati bilan Domla Halim Ibodov bu yerga takif qilinadi va musiqashunos N.N.Mitonov undan «Shashma-qom»ning ko'pgina namunalarini yozib oladi.

Hammadalda o atoqli bastakor va xonanda Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan hinga hamo ha bo'lib, juda ko'p konsertlarda, sayllarda ishtirok etdi.

Domla Halim Ibodov 1931 yildan boshlab O'zbekiston radiosida ishlay boshladi. U ijro etgan «Savli Savinozo», «Qash-qarchai ushshoq» «droq», «Hamdola», «Mo'g'ulchai dugoh», «To'lqin», «Navro'zi Sabo» singari ashulalar hingida otta fonda saqlanadi.

1933-1934 yillarda musiqashunos Y.E.Romanovskaya Domla Halim ijrosida qisqa kuy va qo'shilqlarni, maqom yo'llarini yozib oladi. Ustoz qator anjumanlarda, jumladan, 1932 yilda Respublika san'at qurultoyida, 1936 yilda san'atkolarining I-turmoniga konferensiyasida, 1937 yilda Moskvada birinchи o'zbek dekadasida iqtisodiy, ya'ni muvalfaqiyatlarga erishdi.

A'maliy Folqjon Sodiqov, Mutal Burxonov, Mardon Nasimov, Doni Zokirov, Ilmari Ramazanov, Nabi-ion Hasanov, Olimjon Halimov (hofizning o'g'i), O'shshofton xalq artisti, bastakor) lar shular jumlasidandir.

Domla Halim Ibodov san'atimiz oldidagi bebaboh xizmatlari uchun 1940-yilda qo'shilqlari xalq hofizi faxriy unvoni sazovor bo'lgan. Domla Halim Ibodov 1940-yilda valoq etdi. Ammo, bugungi kungacha uning nomi bilan atalib kelinaydigan Buxorodagi san'at bilim yurti ustoz orzu qilgan xayri ishlarni ado (10 kelinay).

Muhiddin Qori Yoqubov (1896-1957)

Kabobida Qoriyoqubov o'zbek madaniyatining atoqli arboblaridan bii. 1916 Ashubekchi, opera xonandası (bariton), aktyor, o'zbek musiqali teatri minnaliyatlari, Turkiyiston Respublikasining birinchи xalq hofizi, O'zbekistonda ikkinchи to'vungan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti. Daslab eski maktab, 1913-14 yillarda madrasada tahsil ko'rib, qiroatni yaxshi egallagan, qori sifatida hujum qilg'on. Yoshligidan xalq ashulachilik an'analarini o'zlashtirgan hujum qilg'on, ayol paytda yangi san'at shakllariga qiziqib, Farg'onada mahalliy amalchilikda iborat ilk puflama sozlar orkestrlarida ishtirok etgan, orkestrni

tashki il etgan - Konsertlarda faol qatnashib, xalq va muntoz ashulalar "Yo'" bo'lsin", "G'ayra-g'ayra", "Olmacha anor", "Ko'cha bog'i"ni ijro etgan.

Farg'ona o'ka muslimon siyosiy dramatik truppasida aktyor, rejissyor va rabbar bo'lib, Farg'ona va Zakaspiy frontlari va huddulardida madaniy xizmali qilgan. Toshkentda K.Shorshteyn teatr-studiysi , Moskvada teatr san'ati institutida tahlil ko'rgan. Tamaraxonim bilan "Sharq kechalar" (Moskva), Juhon amaliy san'at ko'rgazmasi shuningdek Berlin konsert sahnalarida o'zbek qo'shiq, yalla va laparlarni yangicha talqin etib, zamonaiviy o'zbek syn'atini ilk bor Yevropada targ'ib etgan.

1926 yil, Samarqanda O'zbek davlat sayyor konsert ethnografik truppasini tashkil qilgan, u bilan Rossiya, tatariston, Gruziya va boshqa joylarda gastiroldi, bo'lgan. Qoriyoqubov Qo'qon va Andijon musiqali teatrлari shakllanishida ham faol ishtirot etgan. 1927—28 yillarda bu teatrлarda badiiy rahbar, rejissyor (M. Miroqilov bilan) sifatida qatnashib, teatr jamoalarini qayta tuzgan, o'zi spektakllarda bosh rollarni o'ynagan: Ne'mat ("Halima", G.Zafary), Farhod ("Farhod va Shirin"), Xurshid pyesasi, Sh.Shoumarov, To'ychi holiz va Yu.Rajabiylar musiqalashtingan), Sulthonbek ("Arshin mol olon", U. Hojibekov) va boshqa Konserternografyk truppassi zaminida O'zbek davlat musiqali teatrini taskil qilgan, uning aktyori, direktori va badiiy rahbari bo'lgan .

O'zbek opera san'atining shakllanishi va rivoj topishida ham Qoriyoquboving xizmatlari salmoqti. Moskva o'zbek opera studiyasini tashkilchisi va rahbari bo'lgan, o'zi ham shu studiyada ta lim olgan. O'zbek davlat opera va balet teatri ochilgach, uning yetakchi yakkaxon xonandasini O'zbek davlat filarmoniyyasi taskil etilishida ham Qoriyoquboving xizmati katta. U 1936 va 1946—50 yillarda filarmoniyaning direktori va badiiy rahbar bo'lib, o'zbek xalq, mumtoz va yangi janrlarni targ'ib euvchi ijody jamoalari ashula va raqs ansambl, xor kapellasi, xalq cholg'ulari orkestrini yuzaga keltirgan

O'zbek filarmoniysi (hozirgi Xalq badiiy jamoalar direktivi) O'zbekiston nomi berilgan. Uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan film ishlangan. Vinitdori no'ml "Huyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan

To'xtasin Jalilov (1896-1966)

Tanqili bastakor, sozanda va pedagog To'xtasin Jalilov 1896 yilda Andijonda tug'ilgan. Juda erta musiqaga mehr qo'yan, o'n yoshligidayq foydani vodiyida «xushovoz xonanda» sifatida tanilgan, bir necha xalq cholg'u shahrida koy chala oladigan T.Jalilov o'zbek xalq musiqasining durdonalarini va instrumental musiqi aseslari bilan asta-sekin tanisha bordi.

1925-1927 yillarda u Hamza tuzgan dramatik truppa jamoasi bilan himoyalashda qatnashdi. Keyinchalik ethnografik kontsert ansamblida ishlab, 1928-1931 yillarda Oxumboboyev nomli Andijon musiqqa teatrida badiiy rahbar bo'lib ishladi. Uning musiqalaridan foydalanan sahnatalashirilgan qator qatlatcha sonunda uzq umr ko'rdi. K.Yashanning «O'rtoqlar» dramasi himoyalini ham T.Jalilov shu teatrda yaratdi.

1934 yilda T.Jalilov Toshkent musiqqa teatriga (hozirgi A. Navoiy nomidagi Opera va balet teatri) musiqi rahbari etib tayinlandi va bu teatrda musiqali drama yaratishda faol ishtirot etdi. 1935 yilda Londonda bo'lib o'igan I'moniqabon raq's festivalida qatnashdi. 1937 yilda Moskvada bo'igan o'zbek istidioti va san'ati dekdasiga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan u o'zbek filarmoniyyasi badiiy rahbar etib tayinlangan bo'lsa, 1940-1949 yillarda Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqali drama va komediya teatrida badiiy rahbar shahri qayga fuolyat ko'satsdi va shu teatrda ijodiy kamolot cho'qisiga ko'rsatdi, keng miduniy jameatchilikka katta ist'e'dod sohibi sifatida tanildi. Hujumli teatrida sonnaga ko'yilgan eng sara durdona asarlarning yaratilishida tashqarining xizmatlari katta bo'idi.

